

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZARIPOVA AZIZA SHAXOBIDDINOVNA

**NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY
INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'QITISH STRATEGIYASINI
RIVOJLANTIRISH
(GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Zaripova Aziza Shaxobiddinovna

Nofilologik oliy ta’lim muassasalarida amaliy ingliz tilini o’rgatishda o’qitish strategiyasini rivojlantirish (geografiya ta’lim yo’nalishlari misolida) 3

Зарипова Азиза Шахобиддиновна

Развитие стратегии преподавания практического английского языка в нефилологических высших учебных заведениях (на примере направлений географического образования)..... 27

Zaripova Aziza Shakhobiddinovna

Development of teaching strategies for practical English in non-philological higher education institutions (Based on Geography Disciplines). 55

E’lon qilingan ishlar ro’yxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZARIPOVA AZIZA SHAXOBIDDINOVNA

**NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY
INGLIZ TILINI O'RGATISHDA O'QITISH STRATEGIYASINI
RIVOJLANTIRISH
(GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Ped2244 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tili institutida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.samdshiti.uz>) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori, (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmudova Muyassar Maxmudovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Davronova Fotima Pirnazarovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillari instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil "27" mart soat 12⁰⁰-dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin, 43. Tel.: (998366) 238-29-37; Faks: (998366) 210-00-18; E-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62811 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin, 43. Tel.: (998366) 238-29-37; Faks: (998366) 210-00-18;

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "10" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "10" mart dagi 16 - raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy ta'lim jarayonida global kasbiy va ijtimoiy tendensiyalar ta'siri ostida talabalar ta'lim xulq-atvorining ongli refleksli modeli o'qitish va o'quv strategiyalarining tanlanishi asosida amalga oshiriladi. Amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'quv materialini anglash va boshqarishga xizmat qiluvchi kognitiv, nutqni tushunish va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlovchi kommunikativ, til o'zlashtirishdagi taktik kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan kompensator strategiyalar alohida ahamiyatga ega. Mazkur strategiyalar nofilolog, xususan geografiya yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida sohaviy terminologiya, amaliy kompetensiyani rivojlantirish, kasbiy matnlar va real kommunikativ vaziyatlarda samarali til faoliyatini ta'minlashda muhim didaktik mexanizmdir. Shu nuqtai nazardan, o'qitish strategiyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishning muhim ahamiyat kasb etishi ushbu ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyoda inson xotirasi mexanizmlariga asoslangan takrorlash, guruhlash, tizimlashtirish, tushunish, umumlashtirish kabi kognitiv strategiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Minnesota universiteti CARLA va Austin universiteti COERLL markazi (AQSH), MakGill Universiteti (Canada), Gumbold Universiteti (Germaniya), Kopengagen Universiteti (Daniya), Moskva Davlat Universiteti kabilar chet tillar o'qitish sifatini oshirish, zamonaviy strategiyalar hamda yondashuvlar orqali ta'lim berish masalalariga qaratilgan rivojlanish dasturlari jahon olimlari diqqat-markazida bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, Yevropa va Janubiy Amerikada "Millatlararo muloqotda ta'lim, til, o'qitish va strategiyalar" loyihalari tillarni o'qitishda til o'rganuvchi tomonidan muloqot va o'rganish kontekstida talab qilinadigan kompetensiyalar borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan ham talabalarning strategik fikrlashi, kommunikativ strategiyalardan samarali foydalanishi hozirgi ta'lim tizimida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish"¹ muhim vazifa qilib belgilandi. Shu munosabat bilan nofilologik oliy ta'lim muassasalarida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarni o'qitish o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. Elektrton resurs: <http://president.uz/oz/lists/view/4327>. (Murojat qilingan sana: 17.01.2024).

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son, 2021-yil 1-apreldagi “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5047-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori, 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-son hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tilni o‘qitish masalalari G.X.Bakieva, J.J.Jalolov, T.K.Sattarov, D.U.Xoshimova, F.M.Rashidova, K.Sh. Muradkasimova, I.M.Tuxtasinov, B.G.Kulmatov, U.U.Jumanazarov, F.Sh.Alimov, M.A.Nazarova, M.U.Buranova, D.X.Xolmurodova² kabi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

²Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов-узбеков (на материале консанантизма): Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Ташкент: 1987. – 21 с.; Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Ташкент, 2012. – Б. 430.; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дисс. док. пед. наук. – 2000. – 32 с.; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: 2017. – С. 309.; Мурадказимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари. Пед. фан. ном. дисс. – Ташкент, ЎзДЖТУ, 2019. – Б. 174.; Tuxtasinov I.M. Tarjimon ta'yorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (DSc) diss. Avtoref. – Toshkent, 2018. – 62 b.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent, 2018. – 45 b.; Jumanazarov U.U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 89 b.; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida): Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 41 b.; Nazarova M.A. Ingliz tilidagi matnlarni o'qishda talabalarni leksik polisemiyaga o'rgatishni takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 48 b.; Buranova.M.U. Tibbiyot oliy o'quv

Ingliz tilini o'qitishda strategik kompetensiyaning ta'limdagi ahamiyati va amaliy jihatlari, o'qitish va o'quv strategiyalari, o'qishni tushunish bo'yicha R.P.Milrud, A.A.Goncharov, Ye.M.Miloserdova, I.A.Zimnyaya, T.A.Kazakova, A.A.Leontyev, I.D.Salitra, S.K.Folomkina, A.A.Brudniy, G.S.Kovaleva, G.A.Makashova, T.A.Razuvayeva, O'Malley, Chamot, E.Blok, C.Hosenfeld, R.L.Oksford, H.Hoshsima, K.Mohtari, R.Sheorey, T.Rodgers, C.Orlich, S.Trevisan, H.Brown, M.Chapman³ kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Terminlarni o'qitish bo'yicha V.A.Juchkevich, V.Belenkaya, E.M.Murzayev, N.Sindalovskiy, V.A.Nikonov, V.P.Parnachev, I.A.Vilsan, M.G.Tanzibayev, A.N.Rudoy, I.V.Kotelnikova, Ye.M.Pospelov, A.Y.Sapojkova, A.V.Superanskaya, L.Uspenskiylar⁴ o'rganishgan.

yurtlarida talabalariga o'qishni o'rgatishda noan'anaviy usullarning joriy qilinishi (ingliz tili materiallarida): Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2023. – 55 b.; Xolmurodova D.X. Tibbiyot muassasi talabalarining til qobiliyatlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 46 b.

³Мильруд Р.П. Компетентность в изучении языка // ИЯШ, 2004. – №7. – С. 30-36.; Гончаров А.А. Теоретические и практические проблемы обучения пониманию коммуникативного смысла иноязычного текста // ИЯШ, 2003. – № 1. – С.12-18.; Милосердова Е.М. Методика преподавания профессиональной терминологии в условиях дистанционного обучения // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки 2021. – Т. 26. - № 193. – С.120-125.; Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». – М., 2004. – 40 с.; Казакова Т.А. Практические основы перевода. English ↔ Russian. - Серия: Изучаем иностранные языки. – СПб.: «Издательство Союз», 2001. – С.102.; Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969. – 214 с.; Салистра И.Д. Очерки методов обучения иностранным языкам. Библиотека филолога. Система упражнений и система занятий. – М.: Высшая школа, 1966. – 252 с; Фоломкина С.К. Обучение чтению на иностранном языке в неязыковом вузе: Учеб.-метод. пос. для вузов. – М.: Высш. шк., 1987. – 207 с.; Брудный А.А. Психологическая герменевтика. – М.: Лабиринт, 1998. – 201 с.; Ковалева Г.С., Нурминская Н.В. Аналитический отчет «Изучение скорости чтения 15-летних учащихся». – М.: Центр оценки качества образования ИОСО РАО, 2001. – 28 с.; Макашова Г.А. Структурный метод обучения чтению литературы по специальности на иностранном языке (обучение аспирантов чтению технической литературы на английском языке). дис. ... канд. пед. наук. – Л.:1969. – 200 с.; Разуваева Т.А. Формирование читательской компетенции студентов факультета иностранных языков: Дисс. канд. пед. наук. – Тула, 2006. – 234 с.; O'Malley J.M., Chamot A.U, Learning Strategies in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press. 1990. – 272 p.; Block E. The Comprehension Strategies of Second Language Readers // TESOL Quarterly. 20(3). 1986. – P.494.; Hosenfeld C. A Preliminary Investigation of the Reading Strategies of Successful and Unsuccessful Second Language Learners // System. 5(2). 1979. – P.160.; Oxford R.L. Comparing Theories of Language Learning Strategies: A Confirmatory Factor Analysis // The Modern Language Journal. 86(3). 2002. – P.390.; Khoshsima H. Language Learning Strategies for Building EFL Learners' Autonomy // International Journal of English Language and Translation Studies. 3(4). 2015. – P.90.; Mokhtari K. Assessing Students' Metacognitive Awareness of Reading Strategies // Journal of Educational Psychology. 94(2).2002. – P.300.; Sheorey R. Measuring ESL Students' Awareness of Reading Strategies // Journal of Developmental Education. 25(3).2002. – P.2-10.; Rodgers S. *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press, 2014. – P.270.; Orlich D. *Teaching Strategies: A Guide to Effective Instruction* 11th Edition. 2014. – 98 p.; Trevisan M. S. *Teaching strategies: A guide to effective instruction* (6th ed.). Houghton Mifflin. 2004. – 438 p.; Brown H.D. *Language Assessment; Principles and Classroom Practice* (2th Ed). San Francisco: Longman. 2004. - P. 490.; M.Chapman. *Differentiated Instructional Strategies: One Size Doesn't Fit All* Third Edition. Corwin Press, 2012. – 174 p.

⁴Жучкевич В.А. Топонимика и работа с географическими названиями // География в школе. 1969, № 2, С. 54-57.; Бельнская В.Д. Очерки англоязычной топонимики : учеб. пособие для пед. ин-тов по спец. «Иностр. яз.» / Бельнская В.Д. – М.: Высш. шк., 1977. – 227 с.; Мурзаев Э.М. Слово на карте: Топонимика и география: учеб. пособие / Мурзаев Э.М. – М.: Армада-Пресс, 2001, – 122 с.; Синдаловский Н.А. Книга Перемен: Судьбы петербургской топонимики в городском фольклоре / Наум А. Синдаловский. – М.: Центрполиграф, 2009. – 350 с.; Никонов В.А. Введение в топонимику : учеб. пособие для студентов географических факультетов / Никонов В.А. – М.: Мысль, 1975. – 224 с.; Парначев В.П., Вылцан И.А., Танзыбаев М.Г., Рудой А.Н., Котельникова И.В. Словарь геологических терминов и понятий. 5-е издание : Томск: ТГУ, 2014. – 70 с.; Пospelov E.M. Географические названия мира: Топонимический словарь /

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili hozirgacha nofilologik yoʻnalishlarda amaliy ingliz tilini oʻrgatishda oʻqitish strategiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik jihatlari yetarlicha tadqiq etilmaganini koʻrsatishi mazkur tadqiqotning boshlanishi va olib borilishiga asos boʻlib xizmat qildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillari instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oliy taʼlim tizimini rivojlantirish jarayoniga integrallashgan yondashuv” mavzusidagi ilmiy yoʻnalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nofilologik oliy taʼlim muassasalarida amaliy ingliz tilini oʻrgatishda oʻqitish strategiyasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot doirasida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, oʻqitish strategiyalari hamda talabalarning oʻquv strategiyalari nazariy tipologiyasini aniqlash, shuningdek, strategik kompetensiyaning amaliy kompetensiya rivojlanishiga taʼsir xususiyatlarini oʻrganish;

geografiya sohasiga oid terminlar tipologiyasini takomillashtirish;

talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishda oʻqitish strategiyalaridan foydalanishning didaktik taʼminotini ishlab chiqish;

talabalarda ingliz tilidagi amaliy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik taʼminotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik oliy taʼlim muassasalarida amaliy ingliz tilini oʻrgatishda oʻqitish strategiyasini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini nofilologik oliy taʼlim muassasalarida amaliy ingliz tilini oʻrgatishda oʻqitish strategiyasini rivojlantirish mazmuni, shakllari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda oʻrganishni taʼminlashga qaratilgan metodlar majmui qoʻllandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish), diagnostik (soʻrovlar, test oʻtkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (maʼlumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

amaliy ingliz tilini oʻrganishda talabalarning oʻquv faoliyatini strategik rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻqitish konsepsiyasi ishlab chiqilib, uning doirasida kognitiv, metakognitiv, affektiv yondashuvlarning oʻqish jarayonining bosqichlariga tizimli joriy etilishi hamda CALLA modelidagi Tur → Maqsad → Strategik vosita sxemasining TBL vazifalari va reflektiv komponent bilan

Поспелов Е.М. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Русские словари, 2000. – 696 с.; Сапожкова А.Ю. Формирование терминологической грамотности учащихся в процессе изучения географии [Электронный ресурс] / А. Ю. Сапожкова. – Вологда: Вологодский ИРО, 2020. – 25 с.; Суперанская А.В. Что такое топонимика?: Из истории географических названий. – М.: Наука, 1984. – 182 с.; Успенский Л.В. Загадки топонимики (2-е изд.). – М.: Молодая гвардия, 1973. – С. 269.

uygʻunlashuvi orqali talabalarning strategik va amaliy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy, metodik jihatdan asoslangan;

geografik atamashunoslikning nazariy-metodologik tizimi tahlili natijasida, uning amaliy qoʻllanilish xususiyatlari, mezonlari, tipologik modellari, semasiologik va onomasiologik interpretatsiyasi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari kognitiv paradigma va mualliflik konseptualizatsiyasi asosida ilmiy jihatdan asoslanib, geografik terminologiyani tizimli va samarali qoʻllash imkonini beruvchi zamonaviy ilmiy-amaliy innovatsion tipologiya takomillashtirilgan;

geografiya taʼlimi yoʻnalishi talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan oʻqitish strategiyasining didaktik taʼminoti kompetensiyaviy va strategik yondashuvlar asosida tashkil etilib, IBLSI (Inquiry-Based Learning with Strategic Interaction) texnologiyasining “strategic interaction” komponenti oʻqish faoliyatining maqsad, tayyorgarlik, tahlil, xulosalash va refleksiya bosqichlariga integratsiya qilinishi orqali mualliflik metodologiyasi asosida ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirilgan;

geografiya taʼlimi yoʻnalishidagi talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi GEOSTRAT taʼlim modeli ishlab chiqilib, uning metodik taʼminoti integral-faoliyat bloklarini nazariy va amaliy topshiriqlarga tizimli integratsiya qilish va oʻquv strategiyalarini qoʻllash orqali tajriba-sinov natijalari bilan ilmiy jihatdan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

geografiya yoʻnalishi talabalari uchun “Xorijiy til” fanini oʻqitish tizimi takomillashtirilgan;

amaliy ingliz tilini oʻrgatishda oʻqitish strategiyasini rivojlantirish texnologiyasi takomillashtirilgan;

tadqiqot davomida talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik taʼminot tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim asosida geografiya taʼlim yoʻnalishi talabalari uchun “Kasbiy sohada xorijiy til” nomli oʻquv darsligi ishlab chiqildi. Darslikda oʻqish, tinglab tushunish, terminologiya bilan ishlash va kasbiy vaziyatlarda muloqot qilishga oid topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan yondashuv, usullar va nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati oʻqitish strategiyasining nazariy tipologiyasi, amaliy ingliz tilini oʻrgatishda oʻqitish strategiyasini rivojlantirish bosqichlari hamda rivojlantirish texnologiyasi oʻrganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy taʼlim muassasalarida “Ingliz tili” fanidan darslik, oʻquv qoʻllanma, oʻquv dasturlarini ishlab chiqishda

nofilologik oliy ta'lim muassasalarida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflari asosida:

tadqiqotda amaliy ingliz tilini o'rganishda o'qitish strategiyasini talabalarning o'quv strategiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, konsepsiya asosida kognitiv, metakognitiv va affektiv strategiyalar o'qish faoliyati bosqichlariga integratsiyasi, CALLA modelidagi Tur → Maqsad → Strategik vosita sxemasi TBL vazifalari va refleksiv komponent bilan birgalikda o'rganilishiga doir ilmiy-nazariy xulosalaridan O'zbekiston davlat jahon tillar universitetida, Britaniya kengashi (British Council) hamkorligida amalga oshirilgan "English as a school subject" (1683580) nomli xalqaro loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillar universitetining 2025-yil 5-iyuldagi № 04-01/3236-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning o'qish faoliyatida strategik va amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlari ilmiy jihatdan keltirilgan;

geografik atamashunoslikning nazariy-metodologik tizimi qayta tahlil qilinib, uning amaliy qo'llanilish xususiyatlari, mezonlari, tipologik modellari, semasiologik va onomasiologik interpretatsiyasi hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari kognitiv paradigma va mualiflik konseptualizatsiyasi asosida ilmiy jihatdan asoslanib, geografik terminologiyani tizimli va samarali qo'llash imkonini beruvchi zamonaviy ilmiy-amaliy innovatsion tipologiya takomillashtirilganligiga oid xulosalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 24-iyundagi № 03/1853-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ingliz tilida geografiya sohasiga oid terminlar tipologiyasining aniq mezonlari loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

geografiya ta'limi yo'nalishi talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish strategiyasining didaktik ta'minoti kompetensiyaviy va strategik yondashuvlar asosida tashkil etilib, IBLSI (Inquiry-Based Learning with Strategic Interaction) texnologiyasining "strategic interaction" komponentini o'qish faoliyatining maqsad, tayyorgarlik, tahlil, xulosalash va refleksiya bosqichlariga integratsiya qilinib, mualiflik metodologiyasi yordamida ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirilganligiga doir xulosalaridan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan Toshkent shahridagi AQSH elchixonasi va Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda moliyalashtirilgan "English Access Microscholarship Program" loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 7-martdagi № 662/02 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida yaratilgan dasturlarni xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi hamda metodik tavsiyalar orqali takomillashtirishga erishilgan;

geografiya ta'limi yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi GEOSTRAT ta'lim modelining samaradorligi integral-faoliyat bloklarini nazariy-amaliy topshiriqlarga integratsiya qilish asosida dalillanib, o'quv strategiyalaridan foydalanishning metodik-ta'minlovchi mezonlari aniqlikka ustunlik berish tamoyili asosida ilmiy jihatdan asoslab takomillashtirilganligi borasidagi xulosa va takliflardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida "Ingliz tili saboqlari" ko'rsatuvi va "Ta'lim va taraqqiyot" radioeshittirishining efirga uzatiladigan ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 12-iyundagi № 01-07/147-son va 2024-yil 8-maydagi № 01-07/104-son ma'lumotnomasi). Natijada, sohaga oid terminlar ma'nosining izohlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 7 ta ilmiy-amaliy konferensiya, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola jumladan, 11 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalariga amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobining birinchi faslida mavzuni birlamchi manbalar asosida ilmiy yoritishga yo'naltirilgan. Mazkur faslda xorijiy, MDH va mahalliy olimlar Ch.Velde, J.O'Malley, A.Chamot, R.Oxford, F.Tiyar, H.Hoshsima, Zimnyaya kabi aynan o'qitish va o'quv strategiyasi tushunchalari va uning mazmun-mohiyati, strategik kompetensiyaning amaliy kompetensiya rivojlanishiga ta'sir xususiyatlari, o'qitish strategiyasining kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilan o'zaro bog'liqligi doirasida olib borgan ishlari tahlil qilingan.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv doirasida o'qitish strategiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, o'quv strategiyalari talabalarning bilimni tahlil qilish, umumlashtirish va mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ularning uyg'unligi strategik

kompetensiyaning o'rganish jarayonini boshqarish hamda amaliy kompetensiyaning strategiyalarni real nutqiy vaziyatlarda qo'llashni rivojlanishiga zamin yaratadi. O'quv strategiyalari nazariyasi J.O'Malley va A.Chamot⁵ tadqiqotlarida kognitiv, metakognitiv va ijtimoiy-affektiv turlar asosida yoritilgan bo'lib, ushbu strategiyalarni o'qitish jarayoniga joriy etish maqsadida CALLA (Cognitive Academic Language Learning Approach) modelini ishlab chiqishgan. R.Oxford⁶ tomonidan mazkur strategiyalar murakkab va dinamik tizim sifatida talqin etilib, kommunikativ strategiya tarkibida xotira va kompensator strategiyalari kognitiv tizimga qo'shilgan.

Tadqiqot mobaynida barcha nazariyalarni umumlashtirgan holda, biz o'z mualliflik ta'rifimizni quyidagicha berdik: "O'qitish strategiyasi — bu ta'lim jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, ma'lumotni anglash va tushunishni chuqurlashtirish, bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyat bo'lib, bilim olish jarayonini samarali tashkil etish uchun qo'llaniladigan metod va yondashuvlar majmuasidir. O'qituvchining asosiy vazifasi esa talabaning avtonomiyasini rivojlantirish, o'quv strategiyalarini qo'llash orqali ularni o'z o'rganish jarayonlarini boshqarishga o'rgatishdan iborat. Shu bilan birga, o'quv strategiyalari talaba faoliyatining ongli va maqsadli shakllanishini ta'minlaydi hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini oshiradi".

J.Raymond, E.Blok, C.Hosenfeld, T.Hsiao, Kanale, O'Malley kabi olimlar strategik kompetensiya amaliy kompetensiyaning shakllanishida tayanch mexanizm vazifasini bajarishi borasida nazariyalar berishgan. Strategik kompetensiya amaliy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi markaziy psixolingvistik mexanizmdir, turli strategiyalarning integratsion qo'llanilishi talabaning amaliy til ko'nikmalarini ongli boshqarish, fikrni ravon va samarali ifodalash, kommunikativ vaziyatda muammolarni bartaraf etish va real hayot vazifalarini bajarish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois strategik kompetensiya amaliy ingliz tili o'qitishning asosiy tayanch komponenti hisoblanadi. Tadqiqotda strategik kompetensiya o'qitish strategiyalari orqali o'quv va o'qish strategiyalarida namoyon bo'ladigan talabaning amaliy kompetensiyasini rivojlantiruvchi integrativ kompetensiya sifatida asoslandi. Bu borada biz barcha olimlar keltirib o'tgan ta'riflarga asoslangan holda biz o'z mualliflik yondashuvimiz asosida quyidagicha ta'rifladik: "Strategik kompetensiya talabaning o'z til o'rganish jarayonida maqsadga erishish uchun turli o'quv strategiyalarini ongli ravishda tanlash, moslashtirish va samarali qo'llash qobiliyati, shuningdek, bu jarayonni nazorat qilish, baholash va takomillashtirishni o'z ichiga oluvchi bilim, ko'nikma va malakalar to'plamidir".


R.Oxford, J.A.Dole, G.G.Duffy, L.R.Rohler, P.D.Person, J.H.Flavell, Y.Horiba, S.Mehrpour, C.Vallaselarning ilmiy qarashlari o'qish strategiyalarining nazariy va metodik asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan. O'qish strategiyalari, o'quv strategiyalarining maxsus turi sifatida matnni idrok etish, tushunish va tahlil

⁵O'Malley J.M., Chamot A.U. Learning Strategies in Second Language Acquisition. – Cambridge: Cambridge University Press. 1990. – P.10.

⁶Oxford R.L. Comparing Theories of Language Learning Strategies: A Confirmatory Factor Analysis // The Modern Language Journal. 86(3).2002. – P.300.

qilishni osonlashtiradi. R. Oxford⁷ ularni global, muammolar yechimi va o‘qishni qo‘llab-quvvatlash strategiyalariga ajratgan. Olimlar keltirib o‘tgan ta’riflarga ko‘ra biz o‘z mualliflik yondashuvimiz asosida quyidagicha ta’rifladik: “o‘qish strategiyasi o‘quv strategiyalar tarkibiga kiruvchi, ma’lum bir o‘qish vazifasiga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan, kontekstga mos harakatlar majmuasi bo‘lib, ta’lim oluvchiga qarab turli usullarda qo‘llanilishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, bu harakatlar o‘qishdan oldin, o‘qish jarayonida yoki o‘qish topshirig‘idan keyin amalga oshirilishi mumkin”.

O‘quv strategiyalarining xususiyatlari va turlarini tavsiflashdan oldin, ularning amaliyotda qo‘llanilishi muhim vazifa sifatida qaraladi. Topshiriqqa yo‘naltirilganlik va onglilik omillari strategik kompetensiyasining negizini tashkil etib, amaliyotga tadbiq etishda muhim hisoblanadi. Vazifa bajarishda yuzaga keladigan cheklov va bo‘shliqlar talabning o‘quv strategiyalarni ongli tanlashini talab qiladi. Bizningcha, maqsadlilik (natijaga yo‘naltirilgan harakat) va onglilik (strategiya tanlovi va o‘zini nazorat) alohida yoritilishi lozim, aynan shu uyg‘unlik strategik kompetensiyani faollashtirib, kommunikativ maqsadga erishishni ta’minlaydi. Tadqiqotchi olimlarning o‘quv strategiyalari tipologiyasini tahlilga tortish, taqqoslash va o‘rganib chiqish negizida, mualliflik ishlanmasi asosida takomillashtirildi (1-rasmga qarang):



1-rasm. O‘quv strategiyalari tipologiyasi

Xulosa qilib aytganda, o‘qitish strategiyasi ta’lim maqsadini, usullarini va ularni qo‘llash tamoyillarini aniqlash, shuningdek talabning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir. U bo‘ljak geografiya sohasi

⁷Oxford R.L. Comparing Theories of Language Learning Strategies: A Confirmatory Factor Analysis // The Modern Language Journal. 86(3).2002. – P.253.

mutaxassislarida ma'lumotni chuqur tushunish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, turli kontekstlarga moslashish hamda sifatli ilmiy va informativ materiallarni yaratishda muhim omil hisoblanadi. Bunda urg'u asosan matn bilan ishlash va o'qish ko'nikmalariga beriladi. Shu bilan birga, topshiriqqa yo'naltirilganlik va onglilik kognitiv, metakognitiv, affektiv, kompensator hamda kommunikativ strategiyalarni ongli qo'llashni rag'batlantiradi. Natijada o'qish strategiyalari yetakchi bo'lsa-da, eshitish, gapirish va yozish ko'nikmalari ham integrativ tarzda takomillashtirilib, talabning amaliy kompetensiyasi strategik kompetensiya ta'sirida rivojlantiriladi.

Birinchi bobning ikkinchi faslida o'qitish strategiyasini rivojlantirishda geografiya sohasiga oid terminlardan foydalanishning ahamiyati, geografik terminlar tipologiyasi yoritilgan. Nofilologik yo'nalishlar bo'yicha chet tilini o'zlashtirishning maqsadi til asosidagi kasbiy kompetensiyaga tegishlidir. Talaba tilni o'z sohasiga tegishli ma'lumotlar, terminlar, tegishli tarmoqlar va matnlar orqali o'rganadi, terminlarni o'rganish esa sohaga tegishli tushunchalarning xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Xorijiy mamlakatlarning zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi matnlarini bir nechta asosiy sohaviy guruhlariga tuzish mumkin:

- iqtisodiy-geografik obyektlarni tavsiflash uchun qo'llaniladigan matnlar ("region", "country", "state", "dependent territory", "state territory", "territorial socio-economic system", "economic region", etc.);

- iqtisodiy-geografik munosabatlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan matnlar ("territorial organization", "location", "population distribution", "international geographical division of labour");

- iqtisodiy-geografik jarayonlarni aks ettiruvchi matnlar ("process of locating productive forces", "location process", "urbanization process", "economic integration processes", etc.). Geografik hodisalarning turli jihatlari va xususiyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi, mintaqaviy tushunchalar va terminlarni aks ettirish konseptual va terminologik tizimlarni – umumiy asosiy tushuncha bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalarni, tegishli terminlarni shakllantiradi. Katta konseptual va terminologik tizimlar eng muhim, fundamental iqtisodiy va geografik tushunchalar asosida shakllanadi: "continent", "region", "national territory", "iqtisodiy hudud", "economic region", "location".

Geografiya sohasiga oid matnlar bilan ishlashda o'qitish strategiyalarini quyidagicha ajratish mumkin:

1-guruh– matn bilan ishlashning reproduktiv-qidiruv, tushunish strategiyalari;


2-guruh – matn bilan ishlashning takrorlash-tahlil strategiyalari;

3-guruh – matn bilan ishlashning ijodiy-metakognitiv strategiyalari.

Bu borada, jadval yoki diagramma ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish usuli, tayanch, mantiqiy sxemalarni, nuqtalarni tuzish usuli, jadvallarni tuzish usuli, matn qismlari bo'yicha savollarga javob berish usuli, sharh bilan o'qish usuli, modellashtirish usuli, geografik xatolar bilan hikoya qilish usuli, krossvordlar, jumboqlarni tuzish usuli, sinkveyn tuzish usuli tavsiya etiladi. Terminlarni

o‘rganishda o‘qitish strategiyalari orqali talabaning matni tushunish, tahlil qilish, ijodiy ishlash qobiliyatlari va boshqa til ko‘nikmalari kompleks rivojlanadi.

Ushbu bobning uchinchi faslida talabalarni o‘qishga o‘rgatishning metodik xususiyatlari, xususan, o‘qishni tushunish nazariyalari va amaliy, strategik kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Tadqiqot o‘qitish strategiyasini rivojlantirish orqali amaliy ingliz tilini o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlarni taklif etadi. Talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirish amaliy kompetensiyani rivojlantiruvchi asosiy omil bo‘lib, u kognitiv–metakognitiv–affektiv strategiyalarni integratsiyalovchi tizim va TBL tamoyillari asosida, o‘qish strategiyalarini real vazifalarda qo‘llash orqali yakuniy natijaga yo‘naltiriladi. Shu tariqa strategiyalar integratsiyasi ma‘no markazli faoliyatda ishga tushib, strategik va amaliy kompetensiyani bir vaqtda rivojlantiradi. Ta‘limning vazifaga asoslangan texnologiyasi faol texnologiyalar turiga kiradi. TBL bo‘yicha berilgan ta‘riflardan birining muallifi J.Willis⁸ fikriga ko‘ra “o‘rganuvchiga hayotiy vazifalarni berish, ularni aniqlashtirish, ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, xulosa qilish va shu orqali real vaziyatlardagi muammolarni yechish asosida bilimlarni egallash uchun shart-sharoit yaratish tashkil etadi”. Shuningdek, talabalarning o‘qish faoliyatini tahlil qilish, xatolarini anglash, samarali strategiyalarni tanlash, ko‘nikmalarni rivojlantirishda reflektiv komponent muhim o‘rin tutadi. U talabaning o‘z o‘rganish jarayonini baholash va nazorat qilishga yo‘naltirilgan metakognitiv tahlil bosqichidir. D.Kolb bu komponentni o‘quv faoliyatining markaziy xalqasi sifatida ta‘riflagan. TBL texnologiyasi talabani vazifaga jalb qilib, mustaqil yechim topishga yo‘naltiradi hamda talabaga berilgan topshiriqni yechish uchun vositalar tanlash va uni amaliyotga qo‘llashni topshiradi. Yangi vazifa berilganda talaba strategik vositalar tanlaydi va ijro qiladi, bunda O‘Malley va Chamotning CALLA modelidagi uchlik “Task type (tur) → Task Goal (maqsad) → Strategic device (strategik vosita)” sxemasiga murojaat qilinadi. Mazkur sxemaga reflektiv komponentning integratsiyasi vazifani bajarish siklini to‘liq yakunlaydigan, strategik kompetensiyani rivojlanishini ta‘minlaydigan va o‘quv jarayonini uzluksiz o‘zlashtirishga yo‘naltiradigan didaktik modelni shakllantiradi (2-rasmga qarang):



2-rasm. CALLAning “Tur →Maqsad→Strategik vosita” sxemasiga reflektiv komponentning integratsiyasi

Chet tillarni o‘qitishda muammo asosida tashkil etilgan vazifalar tizimi keng qo‘llaniladigan topshiriq–yechim mantiqiga tayangan holda tashkil etildi. Ushbu yondashuvda muammoni aniqlash, sabab omillarni topish, muqobil yechimlar keltirish, aniq yechimni tanlash, taqdimot, natijani baholash kabi bosqichlar izchil

⁸ Willis J. Doing Task-based Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 200.

amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar o'qish faoliyatida vazifaga asoslangan tahliliy idroki (analitik) va mazmunni umumlashtirish (sintetik) jarayonlarning izchil ketma-ketligida amalga oshiriladi. Tadqiqotda muammo yechishga yo'naltirilgan vazifalar ketma-ketligi Ellisning uch bosqichli (pre–during–post) task sikliga integratsiya qilinib, mualliflik metodik modeli ishlab chiqildi. Dastlabki, pre-task bosqichida mavzu va vazifa talablari aniqlashtirilib, kognitiv tayyorgarlik shakllantirildi; o'rta, during-task bosqichida ma'no-markazli interaksiya asosida ma'lumot yig'ish, tahlil va qaror qabul qilish jarayonlari amalga oshirildi; oxirgi, post-task bosqichida esa olingan natijalar taqdim etilib, refleksiya va tilga yo'naltirilgan tahlil orqali o'rganish mustahkamlandi.

O'qishni tushunish jarayoni chet tili o'qitish metodikasining markaziy komponentlaridan biri bo'lib, talabaning matndan mazmun ajratish, kontekstual xulosalar chiqarish, terminlarni anglash va matn asosida muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Metodist olimlar A.A.Brudniy, S.K.Folomkina va boshqalar o'qishda ma'noni to'liq anglash uchun maqsadli o'quv strategiyalarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv o'qituvchining darsni samarali tashkil etishida motivatsiya, taqdimot, amaliy mashqlar bilan mustahkamlash, natijani tahlil qilish kabi vazifalari alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Nofilologik yo'nalishlarda talabalarning o'qishni tushunishdagi qiyinchiliklari asosan strategiyalardan yetarlicha foydalanilmasligi va mashqlarning an'anaviy xarakterga ega bo'lishi bilan bog'liq. Bunda ko'p omillar o'qituvchining matn uchun ijodkorlikni rag'batlantiradigan, vazifalarni shakllantirish qobiliyatiga aloqador hisoblanadi. Ushbu jarayonning ba'zi metodik xususiyatlari sifatida strategiyalar asosida: ixtisoslashgan lug'at boyligini oshirish, sohaviy terminlarni o'rganish, matn tahlili ko'nikmalarini rivojlantirish (matnning tuzilishini, asosiy g'oyalarni ajratib olish va ma'lumotlarni topish), kontekstual tushunishni oshirish (matnning kontekstini tushunish, noaniq so'z va iboralarni to'g'ri talqin qilish), o'rgangan ma'lumotlarini chet tilida amaliy qo'llash, muhokama-debatlar, prezentatsiyalar tashkil etish kabi metodik yondashuvlar talabalarga nafaqat ingliz tilida o'qish, balki o'z sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotimiz davomida tahlilga tortilgan zamonaviy ta'lim texnologiyasi bu IBLSI (Issue-Based Learning and Strategic Interaction) bo'lib, ayniqsa nofilologik yo'nalishdagi xorijiy til o'rganuvchilarining amaliy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. IBLSI texnologiyasi ilk bor olim R.Pietro⁹ tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lib, Issue solving va Strategic Interaction kabi asosiy komponentlarni qamrab oladi. Strategic Interaction komponenti o'qish jarayonida matnning struktura–semantik xususiyatlari, axborot, matn maqsadi hamda amaliy muloqot mezonlari bilan uyg'unlashtirilib, talabalarda strategik o'qish kompetensiyasini shuningdek, amaliy kompetensiyasini didaktik jihatdan qo'llab-quvvatlashda samarali qo'llaniladi (1-jadvalga qarang):

⁹ Pietro R. J. Strategic Interaction: Learning Languages through Scenarios. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 220.

“Strategic Interaction” komponentining o‘qish faoliyatining bosqichlari bilan integratsiyasi

O‘qish faoliyati bosqichlari	Strategic Interactiondagi ifodasi	Strategik kompetensiyani shakllantirishdagi vazifasi
Maqsad va oldindan tayyorgarlik	Reading purpose setting, previewing, predikatsiya	O‘qish maqsadini aniqlash, keraksiz axborotni filtrlash, umumiy yo‘nalishni belgilash, monitoringni osonlashtirish
Ma’lumotni tez tahlil qilish	Struktur-semantik tahlil, skimming, scanning.	Asosiy g‘oya va dalillarni aniqlash, matn strukturasi va argumentatsiyasini tushunish, ma’no chiqarish
Xulosalash va moslashuv	Anotatsiya, summarizing, reframing, highlighting.	Asosiy g‘oyani ixchamlashtirish, muqobil talqinlarni ko‘rish, eng maqbul yechimni tanlash
Refleksiya	Reflektiv tahlil, strategiyani qayta qo‘llash	Strategiyalarni yangi matnlarga qo‘llash, metakognitiv o‘shishni ta’minlash va keyingi o‘qish jarayonini takomillashtirish

Tadqiqot maqsadiga mos ravishda, ko‘zlangan natijaga erishishda to‘g‘ri tanlangan metod va texnikalar amaliy va strategik kompetensiyani takomillashtirish jarayonini izchilikda olib borishda katta yordam ko‘rsatadi. Demak, bizning nuqtayi nazarimizda quyidagi metod va texnikalar mujassamligida darslarni tashkil etish o‘qitish strategiyasini rivojlantirishni ta’minlaydi: aqliy hujum (Brainstorming), g‘oyalar xaritasi (mind mapping), klasster (Cluster), KWL jadvali, Frayer modeli, Venn diagrammasi, jigsaw reading, INSERT jadvali, Sinkveyn, 3D shakl, ro‘lli o‘yinlar, loyiha metodi, refleksion jurnal texnikalari.

Dissertatsiyaning **“Geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalariga amaliy ingliz tilini o‘rgatishda o‘qitish strategiyasini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi faslida malaka talablari, o‘quv dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tahlili, o‘qitish strategiyalarini rivojlantirish jarayonidagi qiyinchiliklar, takomillashtirishga oid zamonaviy usullar va yondashuvlar, amaliy ingliz tilini o‘rganishda o‘qitish strategiyasining komponentlaridan foydalanish hamda mustaqil ta’limda talabalarning o‘qitish strategiyalarini takomillashtirishda mashqlardan foydalanish yoritilgan.

Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va bakalavriat yo‘nalishlari bo‘yicha belgilangan malaka talablari ta’lim mazmuni va natijalarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz doirasida “Malaka talablari” hamda tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan birinchi bosqich talabalarining “Xorijiy til (Ingliz tili)” fanining “O‘quv dastur”lari hamda darsliklari tahlilga tortildi. Mazkur hujjatlarda ta’lim jarayonining bosqichma-bosqich, ketma-ket va uzviylik tamoyillari asosida tashkil etilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, geografiya yo‘nalishi talabalariga amaliy ingliz tilini o‘rgatishda o‘qitish strategiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uslubiy yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Tadqiqot doirasida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tomonidan ishlab chiqilgan “60530400 – Geografiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari” tahlil qilindi. Unga ko‘ra talabalar egallashi lozim bo‘lgan umumiy va kasbiy kompetensiyalar mazmuni belgilangan bo‘lib, ularga muvofiq ishlab chiqiladigan

o'quv dasturlari strategik, kommunikativ va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlashi lozim. Xususan, B1 darajadagi talabalar o'qish jarayonida murakkab vaziyatlarda oldindan reja tuzish, mos strategiyalarni tanlash, asosiy g'oyalarni prognoz qilish, shuningdek, til vositalari yetishmaydigan holatlarda muqobil strategiyalardan foydalanish, tushunmovchiliklarni aniqlash va bartaraf etish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Mazkur ko'nikmalar o'z mohiyatiga ko'ra olim Baxman ta'kidlaganidek strategik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari hisoblangan rejalashtirish, ijro etish, monitoring va natijani baholash jarayonlari bilan to'liq hamohangdir. Tadqiqotimiz davomida ta'lim yo'nalishi: 60530400-Geografiya yo'nalishi talabalari uchun "Xorijiy til (Ingliz tili)" fanining o'quv dasturi (2023-yil 6-sentabr 2-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan) tahlil qilindi. Ushbu fanga jami yuklama 120 soatni tashkil etib, 60 soat auditoriya mashg'ulotlariga, 60 soat mustaqil ta'limga ajratilgan bo'lib, ta'lim natijalari berib o'tilgan. Dasturda fanni o'zlashtirish natijasida talaba: chet tilini Umumyevropa standartlari bo'yicha B1 darajada o'zlashtiradi, og'zaki va yozma nutq amaliyoti bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi, tanish mavzular va autentik materiallarni o'qish, tinglash va tushunishda malaka hosil qiladi, til ko'nikmalari bo'yicha mahoratini oshiradi, prezentatsiyalar orqali fikrlarini aniq bayon qiladi, til o'rganilayotgan mamlakat madaniyatini o'z madaniyati bilan taqqoslaydi, muloqotda erkin ishtirok etadi. Bundan tashqari, o'quv dasturiga kiritilgan asosiy adabiyotlar ham tahlil qilindi.

Keyingi ikkinchi faslda talabalarning ingliz tilidagi bilim va ko'nikmalarni egallashda, o'qitish strategiyasini rivojlantirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchi T.Gregersen¹⁰ o'z izlanishlarida talabalarning o'quv jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni keltirgan. Unga ko'ra asosan lingvistik (lug'at yetishmasligi), kognitiv (fikrlashdagi qiyinchiliklar), affektiv (ijtimoiy faoliyat) kabi jihatlar bilan bog'liqligiga asoslangan va tadqiqot jarayonida talabalarning ushbu turlardagi qiyinchiliklari aniqlandi. Bundan tashqari, geografiya sohasiga oid terminlarni o'zlashtirishda terminlarning murakkabligi, geografik terminlar va kundalik til o'rtasidagi farqlar, terminologiyaning tez o'zgarishi kabi qiyinchiliklar ko'zga tashlandi. J.Ermolayeva¹¹ nofilologik yo'nalishlarda chet tillarni o'qitishda quyidagi terminlarni o'qitish usullarini tavsiya etadi: tushuntirish berilishi orqali termini tanishtirish, terminning semantikasi va etimologiyasini aniqlash hamda talabalar bilimini mustahkamlash bosqichida klaster tuzish.

Tadqiqotning ikkinchi bobi, uchinchi faslida taklif etilayotgan metodika bo'yicha mashqlar tizimini ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Geografiya yo'nalishi talabalari uchun amaliy ingliz tilini o'rgatishda taklif etilayotgan metodik modelimiz zamonaviy til o'qitish tamoyillariga asoslanib, kommunikativ, strategik va integrativ yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqilgan.

¹⁰Gregersen T, MacIntyre P. Affect: The role of language anxiety and other emotions in language learning. S.Mercer, S.Ryan, M.Williams (Eds.), Psychology for Language Learning. – London: Palgrave Macmillan, 2012. – P. 102-117.

¹¹5 Эффективных приемов терминологической работы. Электронный ресурс: 5 эффективных приемов терминологической работы - EduNeo.

Kognitiv, metakognitiv, affektiv, kompensatsion, yodlash va ijodiy strategiyalar o‘qish ko‘nikmalari hisoblangan tushunish, umumlashtirish, lug‘at bilan ishlash va takrorlash bilan uzviy bog‘langan. Kommunikativ yondashuv konseptual tayanch sifatida geografik terminlarni amaliy muloqot va muhokama vositasi sifatida qo‘llashni ta‘minlaydi. Kommunikativ til o‘qitish yondashuviga asoslangan faoliyatlarni Litlvud¹² asosiy ikki turga ajratadi: Kommunikativ faoliyatdan oldingi: tizimli (strukturaviy) faoliyat, kvazi- kommunikativ faoliyat; Kommunikativ faoliyat: funksional kommunikativ faoliyatlar, ijtimoiy muloqot faoliyatlar. Strukturaviy va kvazi-kommunikativ orqali o‘qish strategiyalarining asosiy mexanizmlari o‘zlashtiriladi, funksional va ijtimoiy kommunikativ orqali esa ushbu strategiyalar real, maqsadga yo‘naltirilgan o‘qish vaziyatlarida faol qo‘llanadi. Mazkur yondashuvga asos qilgan holda, biz mashqlarni nomlanishini J.Jalolovning dastlabki shakllantiruvchi, o‘rta rivojlantiruvchi va yakuniy mustahkamlovchi bosqichlarda tashkil etishni taklif etdik. Har bir bosqich talabalarning reproduktiv-qidiruv, takrorlash-tahliliy va ijodiy strategiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mashqlar talabalarning tilni bilish, sohani bilish, nazariy va amaliy bilimlarni qo‘llash, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash kabi ko‘nikmalari rivojlantirishni maqsad qiladi. Talabalarda matnni tahlil qilish, asosiy g‘oyalarni ajratish, strategiyalarni ongli tanlash, kontekstdan ma‘no chiqarish hamda metakognitiv monitoring kabi o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mashqlar tizimi o‘qitish strategiyasi tarkibidagi maqsad qo‘yish, rejalashtirish, ijro, monitoring va refleksiya komponentlarining integratsiyalashgan qo‘llanilishi orqali talabalarda strategik kompetensiyani shakllantiradi hamda u asosida amaliy kompetensiyaning izchil va kompleks rivojlanishini ta‘minlaydi (2-3-jadvallarga qarang):

2-jadval.

Taklif etilayotgan mashqlar tipologiyasi

Mashqlar tipologiyasi	Dastlabki bosqich mashqlari (pre-task)	Sohani bilishga qaratilgan mashqlar	Terminologik bazani shakllantirish va faollashtirish geografik terminlarni qo‘llash, mavzu va kasbiy kontekstni faollashtirish
		Tilni bilishga qaratilgan mashqlar	Leksik, grammatik va strukturaviy tayyorgarlikni ta‘minlash doir
	O‘rta bosqich mashqlari (while-task)	Nazariy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	Matn mazmunini tahlil qilish, tushunish va umumlashtirish doir
		Amaliy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	O‘qilgan ma‘lumotni vaziyatga mos qo‘llashga doir
	Mustahkamlovchi Bosqich mashqlari (post task)	Mustaqil ishlashga qaratilgan mashqlar	O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashga doir
		Tanqidiy, tahliliy fikrlashga, o‘z – o‘zini baholashga qaratilgan mashqlar	Baholash, xulosa chiqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilishga doir

¹² Littlewood W. Communicative Language Teaching. Cambridge. – Cambridge University Press, 1981. – P. 69.

Mashqlar yoʻnalishlari boʻyicha namunaviy topshiriqlar

Mashqlar yoʻnalishi	Namunaviy topshiriqlar
Sohani bilishga qaratilgan mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> – Xarita, diagramma yoki rasm asosida mavzuni aniqlash; – Matn sarlavhasi boʻyicha asosiy gʻoyani taxmin qilish; – Mavzu boʻyicha “bilaman / bilmoqchiman” (KWL) jadvalini toʻldirish; – Terminlarni taʼriflar bilan moslashtirish; – Terminlarni tematik guruhlariga ajratish; – Terminlarni kontekst asosida izohlash.
Tilni bilishga qaratilgan mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> – Matndan faol feʼllar va grammatik konstruksiyalarni ajratish; – Sinonim va parafrazalarni topish; – Gap tuzilishini tiklash.
Nazariy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> – Skimming orqali asosiy gʻoyani aniqlash; – Matndan sabab–oqibat bogʻlanishlarini topish; – Abzaslarning funksiyasini belgilash; – Scanning orqali fakt, raqam va joy nomlarini aniqlash
Amaliy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> – Oʻqilgan maʼlumotni real geografik vaziyat bilan bogʻlash; – Muammo va yechimlarni ajratish; – Sinkveyn.
Mustaqil ishlashga qaratilgan mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> – Matn asosida qisqa xulosa (summary) yozish; – Terminlar asosida reja-sxema tuzish; – Mini-taqdimot tayyorlash; – Frayer modeli.
Tanqidiy, tahliliy va reflektiv mashqlar	<ul style="list-style-type: none"> – Matndagi gʻoyalarga tanqidiy baho berish; – Muqobil yechimlar taklif qilish; – Refleksiya (3D Shakl).

Dissertatsiyaning “Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlari va uning natijalari yoritilgan. Ushbu tajriba-sinov ishlarining maqsadi geografiya yoʻnalishi talabalariga amaliy ingliz tilini oʻrgatish jarayonini takomillashtirish, jumladan, oʻqish faoliyatida turli kontekstlarda matnni tushunish, geografik terminlarning mohiyatini anglash va ularni amaliy kommunikativ vaziyatlarda qoʻllay olish samaradorligini oshiruvchi strategik va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini eksperimental tarzda sinovdan oʻtkazishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlaridagi ilmiy-metodik talablarga binoan, pedagogik tajriba-sinov jarayonlarini oʻtkazish uchun maydon sifatida respublikamiz boʻylab jami 3 ta OTM tanlab olindi. Bular Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti (SamDU), Navoiy Davlat Pedagogika Instituti (NavDPI) va Qarshi Davlat Universitetida (QarDU). Oʻtkazilishi rejalashtirilgan tajriba-sinov muddati


va o'quv materiali miqdori 2023-2024 o'quv yili uchun belgilandi jami 304ta talabalar orasida tajriba-sinov ishlari tashkillashtirildi.

Tajriba-sinov jarayonlari ushbu bosqichlarda amalga oshirildi: tasdiqlovchi (2022 yil), aniqlovchi (2023 yil) va asoslovchi pedagogik tajriba - sinov (2023-2024 o'quv yili) va umumlashtiruvchi bosqich. Tasdiqlovchi tajribaning maqsadi – geografiya ta'lim yo'nalishida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirish yo'llarini aniqlash va o'rganishdan iborat. Aniqlovchi tajriba maqsadi – geografiya ta'lim yo'nalishida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirishga umumiy tayyorgarlikni uyushtirish, o'qitish strategiyalaridan foydalanishning shakl va metodlarini o'rganish, uslubiy ishlarni olib borish, topshiriqlar va ishlanmalarini ishlab chiqish.

Asoslovchi tajriba-sinov bosqichi maqsadi – olingan natijalar asosida geografiya ta'lim yo'nalishida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirish yuzasidan ishonchli ma'lumotlarni yig'ishdan va tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishdan iborat. Umumlashtiruvchi bosqichning maqsadi jarayon davomida ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Amaliy bosqichda tajriba-sinov ishtirokchilari soni aniqlandi hamda nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi, tajriba-sinov ishlari guruhlarda bosqichma-bosqich holatda olib borildi. O'qish mashqlarini bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratildi: matn mazmunini to'liq tahlil qilish, matndagi so'z va so'z birikmalari yordamida matnni tushunganlikni aniqlash maqsadida kichik o'qish mashqlarini bajarilishi; kontekstdan kelib chiqqan holda qisqacha mazmunini gapirib berish; mavzuni mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni oldindan tayyorlangan va tayyorlanmagan tarzda berilganligi; geografik terminlarning matnlarda to'g'ri tanlanganligi; geografik terminlarning nutqda ham qo'llanilishiga e'tibor qaratilganligi; geografik terminlarning o'qish mashqlarida tushunilish darajasiga e'tibor qaratilganligi hamda leksik mashqlar bajarishda talabanning vaqt reglamentiga qarab undan unumli foydalana olishiga e'tibor berildi.

Shu maqsadda mualliflik ta'lim modeli ishlab chiqildi va "GEOSTRAT" nomi bilan taqdim etildi. Ushbu model talabalarning strategik kompetensiyasini takomillashtirish orqali o'qish jarayonida samarali natijalarga erishishni hamda ularning amaliy til ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi hamda asosiy yondashuvlarga tayangan holda quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: vazifaga yo'naltirilgan faoliyat, reflektiv faoliyat, harakat-loyihaga yo'naltirilgan faoliyat, interaktiv faollik, moslashuvchan fikrlash orqali ishtirok etish, natijani baholash.

Model to'rtta asosiy blokdan tashkil topgan bo'lib, ko'zlangan maqsad va vazifalar maqsadli blokda berilgan. Tashkiliy blokda chet tillar o'qitishning didaktik va metodik tamoyillari ifodalandi. Nazariy tahlillarga asoslangan holda kognitiv, metakognitiv, affektiv, kommunikativ, kompensatsion o'quv strategiyalari belgilab olindi. Darslarni vazifaga asoslangan holda tashkillashtirish modelning strategik blokida o'z aksini topgan. Shu bilan bir qatorda ushbu blok o'qitish bosqichlari, yondashuv, metod va texniklar uyg'unligidan tashkil topgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. "GEOSTRAT" modeli.

Mazkur blokning natijaviy qismiga ko‘ra talaba ma’lumotni kognitiv tahlil qiladi, o‘z fikrini erkin ifodalay oladi, o‘quv strategiyalarini vaziyatga moslashtira oladi va reflektiv yondashadi. Natijalar xolisona baholash mezonlariga ko‘ra amalga oshirildi hamda terminlarni o‘zlashtirish, matn bilan ishlash, aniqlik, muammoni yechish, faoliyatga kirishish, strategiyalardan foydalana olish, refleksiya va monitoring mezonlari orqali “5” (a’lo), “4” (yaxshi), “3” (qoniqarli), “2” (qoniqarsiz) tarzida baholandi

Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili quyidagilar asosida o‘rganildi: tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki va yakuniy anketa-so‘rov natijalari; tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki va yakuniy test natijalari; tajriba va nazorat guruhlarining topshiriqlar bo‘yicha natijalari. Pedagogik tajriba-sinov natijalari matematik-statistik tahlili Styudent-Fisher kriteriyasi asosida amalga oshirildi. Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari quyidagi jadvallarda keltirildi (4-jadvalga qarang):

4-jadval

Nazorat guruhlari talabalarining tajriba-sinovda qayd etgan dastlabki natijalari

№	OTM	Talaba soni	a’lo	foizda	yaxshi	foizda	Qoniqarli	foizda	Qoniqarsiz	Foizda
1	SamDU	38	1	2,6%	3	7,9%	15	39,5%	19	50,0%
2	Navoiy DPI	58	1	1,7%	12	20,7%	22	37,9%	23	39,7%
3	QarDU	58	3	5,2%	15	25,9%	19	32,8%	21	36,2%
	Jami	154	5	3,2%	30	19,5%	56	36,4%	63	40,9%

Nazorat guruhlarida talabalarning tajriba-sinovoldi sifat ko‘rsatkichlari mos ravishda 50 %, 60.3 % va 63.8 %ni tashkil etdi (5-jadvalga qarang):

5-jadval

Tajriba guruhi talabalarining tajriba-sinovda qayd etgan dastlabki natijalari

№	OTM	Talaba soni	a’lo	foizda	yaxshi	foizda	Qoniqarli	foizda	Qoniqarsiz	Foizda
1	SamDU	42	2	4,8%	4	9,5%	16	38,1%	20	47,6%
2	Navoiy DPI	57	2	3,5%	7	12,3%	24	42,1%	24	42,1%
3	QarDU	51	2	3,9%	5	9,8%	24	47,1%	20	39,2%
	Jami	150	6	4,0%	16	10,7%	64	42,7%	64	42,7%

Tajriba guruhida tajriba-sinov sifat ko‘rsatkichlari mos ravishda 52.4%, 57.9% va 60.8% ni tashkil qiladi. NG va TGda tajriba-sinovoldi natijalari, deyarli, bir xil miqdoriy ko‘rsatkichlarga egadir. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Navoiy davlat instituti geografiya yo‘nalishi talabalaridan iborat tajriba guruhlari miqdoriy ko‘rsatkichlari orasida ham, deyarli, katta farqlanish kuzatilmadi. NG va TGlar miqdoriy ko‘rsatkichlarining sifat ko‘rsatkichlari, deyarli, 3% ga farqlandi (6-jadvalga qarang):

6-jadval**NG talabalarining tajriba-sinov ishlari yakuniy o'zlashtirish ko'rsatkichlari**

№	OTM	Talaba soni	a'lo	foizda	yaxshi	foizda	Qoniqarli	foizda	Qoniqarsiz	Foizda
1.	SamDU	38	2	5,3%	4	10,5%	14	36,8%	18	47,4%
2.	Navoiy DPI	58	2	3,4%	13	22,4%	21	36,2%	22	37,9%
3.	QarDU	58	4	6,9%	16	27,6%	19	32,8%	19	32,8%
	Jami	154	8	5,2%	33	21,4%	54	35,1%	59	38,3%

Nazorat guruhida talabalarining tajriba-sinov ishlari 6 oydan keyingi sifat ko'rsatkichlari har bir OTM bo'yicha mos ravishda 52,6%, 62,1% va 67,2%ni tashkil etdi. Erishilgan ko'rsatkichlar tajriba-sinov ishlari oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda 2,6%, 1,7% va 2,6% ga oshganligi kuzatildi (7-jadvalga qarang):

7-jadval**TG talabalarining tajriba-sinov ishlari yakuniy o'zlashtirish ko'rsatkichlari**

№	OTM	Talaba soni	a'lo	foizda	yaxshi	Foizda	Qoniqarli	foizda	Qoniqarsiz	Foizda
1.	SamDU	42	7	16,7%	14	33,3%	11	26,2%	10	23,8%
2.	Navoiy DPI	57	9	15,8%	16	28,1%	18	31,6%	14	24,6%
3.	QarDU	51	5	9,8%	13	25,5%	17	33,3%	16	31,4%
	Jami	150	21	14,0%	43	28,7%	46	30,7%	40	26,7%

Tajriba guruhida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari yakuniy sifat ko'rsatkichlari mos ravishda 76,2%, 75,4% va 68,6% ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar tajriba-sinov ishlari oldingi ko'rsatkichlarga nisbatan mos ravishda 23,8%, 17,5% va 7,8% ga oshganligi kuzatildi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarining olgan baholarining umumiy ko'rsatkichlarini Student-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi hamda tajriba guruhidagi o'rtacha ko'rsatkich nazorat guruhiga nisbatan 13,8% ga oshganligi kuzatildi.

XULOSALAR.

Tadqiqot jarayonida amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyalarini takomillashtirish, talabalarining strategik va amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik asoslar yuzasidan ishlab chiqilgan mashqlarning qo'llanilishi, olingan natijalar, tajriba-sinov ishlari va statistik tahlillar asosida olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Zamonaviy ta'lim sohasidagi davlat siyosati bo'lajak kasb egalarining individual qobiliyatlarini oshirish orqali shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu geografiya yo'nalishi talabalarini uchun professional darajada ingliz tilini o'zlashtirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bosqichma-bosqich o'quv jarayonini o'qitish strategiyalari yordamida takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayon geografiya sohasida ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalar nafaqat

universal, balki kasbiy jihatdan ham zarurligi, ularning kasbiy malakalaridan biri hisoblangan xorijiy tillarni o'zlashtirishda kommunikativ imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zaruratidan kelib chiqadi.

2. O'qish va o'qitish strategiyalarining nazariy tipologiyasi o'ziga xos va farqli xususiyatlari aniqlashtirilgan. Geografiya sohasiga oid terminlarni o'rganish o'qish va o'qitish strategiyalaridan foydalanishni taqozo etadi. Geografiya sohasidagi mavzularni ingliz tilida muhokama qilish, matnlar bilan ishlash jarayonida strategiyalarning maqsadga muvofiq qo'llanishi talabalarni faollashtiradi va ularning tilni amaliy ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi, ingliz tilini o'rgatishda qanday usullar samarali bo'lishini aniqlashtiradi.

3. O'qish strategiyalari – bu ma'lum bir o'qish vazifasi yoki maqsadiga erishish uchun ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar bo'lib, ular kontekst va ta'lim oluvchiga qarab turli usullarda qo'llanilishi mumkin. Talabalarni geografik ma'lumotlarni tushunishga va tartibga solishga yo'naltirish, tilni o'zlashtirishda chuqurroq anglashni ta'minlaydi. Bu yondashuv talabalarga tilni nafaqat o'rganish, balki o'ylash va tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi, talabalarga o'z-o'zini baholash va nazorat qilish imkoniyatlarini yaratadi.

4. O'qitish strategiyasi - bu o'qituvchilar talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan barcha yondashuvlardir. Ushbu strategiyalar talabalarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularni kerakli vositalar bilan ta'minlaydi va muayyan o'quv maqsadlari uchun xizmat qiladi. Samarali o'qitish strategiyalari barcha o'quv uslublari va talabalarning rivojlanish ehtiyojlarini qondiradi hamda o'zlarini rivojlantirishga, motivatsiyasini oshirishga, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga, guruhda ishlashga, guruh a'zolari bilan hamkorlik qilishga va texnologiyalardan foydalanish jarayonini o'rganishga yordam beradi.

5. Geografiya sohasiga oid terminlar tipologiyasi aniqlashtirilgan. Terminlar tipologiyasi nazariy, amaliy, umumiy, xususiy, tipologik, semasiologik, onomasiologik, tarixiy, funksional, kognitiv terminologiyasi bo'yicha takomillashtirilgan. Geografiya sohasidagi konkret vazifalar yordamida talabalar aniq maqsadlar sari yo'naltiriladi. Bu yondashuv tilni o'rganishda aniq, o'lchab bo'ladigan natijalarga erishishga yordam beradi va kasbiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Geografik hodisalarning turli jihatlari va xususiyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi, mintaqaviy tushunchalar va terminlarni aks ettirish konseptual va terminologik tizimlarni – umumiy asosiy tushuncha bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalar va tegishli terminlarni shakllantiradi.

6. Talabalarning ingliz tilida amaliy kompetensiyasini rivojlantirishda o'qitish strategiyalaridan foydalanishning didaktik ta'minotini geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqishni taqozo etadi. Talabalarning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirilgan yondashuv har bir talabaning o'ziga xos rivojlanishiga yordam beradi. Bu strategiyalar turli darajadagi talabalarga samarali ta'lim berish imkonini yaratadi.

7. Talabalarda ingliz tili amaliy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik ta'minoti o'qish strategiyalariga ustuvorlik berishi asosida ishlanmalar geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan. Talabalarga geografiya sohasidagi

ingliz tilidagi bilimlarni interaktiv va qiziqarli shaklda o'rganishga yordam beradi. Onlayn platformalar, virtual ekskursiyalar va interaktiv vositalar orqali tilni o'rganish samarali bo'ladi.

8. Talabalarning xatti-harakatlarini strategik yondashuv nuqtayi nazaridan o'rganishga bo'lgan qiziqishning oshishi, o'qish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hal qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqotda o'quv strategiyalarining turlari tahlil qilingan. Talabalarning amaliy kompetensiyasini rivojlantirishda strategik kompetensiyaning komponentlaridan foydalanish talabalarning lingvistik, kognitiv va affektiv qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

9. Vazifaga asoslangan texnologiyalar o'qishda strategik kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim vosita. Ushbu texnologiya talabalarni faol dars jarayoniga jal qiladi hamda talabalarni amaliy fikrlashga o'rgatib, real vaziyatlarda yechim topishga yordam beradi. Vazifaga asoslangan texnologiya, jumladan, "3D shakl", KWL jadvali, Frayer modeli kabi metodlar orqali talabalar tanqidiy fikrlash va ijodiy yechim topishga o'rganishadi.

10. Tadqiqot maqsadlariga muvofiq ravishda ingliz tilini o'qitishga oid davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv dasturlari va darsliklar B1 darajasidagi talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijasida dars jarayonida mashq va topshiriqlarni real hayotiy vaziyatlar bilan integratsiya qilish, talabalar o'rtasida maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek mustaqil, ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi hamda vazifaga asoslangan mashqlarni oshirish zarurligi aniqlandi.

11. Tadqiqotda ishlab chiqilgan amaliy ingliz tilini o'rgatishda o'qitish strategiyasini rivojlantirish "GEOSTRAT" modeli to'rtta (maqsadli, konseptual, jarayonli, natijaviy) blokdan tashkil topgan. Model talabalarga kognitiv fikrlash, vaziyatni baholash, vazifalarni topish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur metod va texnikalar bilan boyitilgan. Modelning samaradorligi pedagogik amaliyotda tasdiqlangan bo'lib, u o'quv jarayonini rivojlantirishda samarali natijalar beradi.

12. Tadqiqot davomida o'qitish strategiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi, kommunikativdan oldingi faoliyat va kommunikativ tizim asosida ishlab chiqilgan bo'lib dastlabki, o'rta va mustahkamlovchi mashqlardan iborat.

13. Tajriba-sinov ishlari davomida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi va o'qitish strategiyasini rivojlantirish modeli uchta ta'lim muassasasida sinovdan o'tkazildi. Sinov ishlari to'rt bosqichda tashkil qilinib, oldingi va yakuniy natijalar tahlil qilindi. Statistik tahlillar talabalarning amaliy kompetensiyasini sezilarli darajada oshganligini ko'rsatdi. Jumladan talabalarning, tanqidiy fikrlash, o'quv strategiyalaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlangan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini takomillashtirishda nafaqat ijobiy o'zgarishlarni tasdiqlaydi, balki o'quv jarayoniga kiritilgan o'zgarishlarning muvaffaqiyati to'g'risida aniq raqamli ma'lumotlarni taqdim etadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВАНИИ НАУЧНОГО
СОВЕТА PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ЗАРИПОВА АЗИЗА ШАХОБИДДИНОВНА

**РАЗВИТИЕ СТРАТЕГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАКТИЧЕСКОГО
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ
(НА ПРИМЕРЕ НАПРАВЛЕНИЙ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № В2023.2.PhD/Ped2244.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.

Научный руководитель:

Тухтасинов Илхомжон Мадаминович
доктор педагогических наук, (DSc) профессор

Официальные оппоненты:

Махмудова Муяссар Махмудовна
доктор педагогических наук, профессор

Давронова Фотима Пирназаровна
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится « 27 » марта 2026 года в 12⁰⁰ часов на заседании научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков, по адресу: 140117, Узбекистан, Самарканд улица Гагарина, д. 43. Тел.: (99866) 238-29-42; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info_samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирован за № 62811). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд улица Гагарина, д. 43. Тел: (99866) 238-29-42.

Автореферат диссертации разослан « 10 » марта 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 16 от « 10 » марта 2026 года).



Н.З. Насруллаева

Председатель разового Научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов

Ученый секретарь разового Научного совета при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв

Председатель научного семинара при разовом Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном образовательном процессе в мире осознанная рефлексивная модель образовательного поведения студентов под влиянием глобальных профессиональных и социальных тенденций реализуется на основе выбора стратегий обучения и преподавания. В обучении практическому английскому языку особое значение имеют когнитивные стратегии, служащие для понимания и управления учебным материалом а также компенсаторные стратегии, направленные на устранение тактических недостатков в усвоении языка. Данные стратегии выступают ключевым дидактическим механизмом развития отраслевой терминологии и практической компетенции, обеспечивая эффективную языковую деятельность при работе с профессиональными текстами и в реальных коммуникативных ситуациях у студентов нефилологических направлений, в частности географии. С этой точки зрения, важность проведения научных исследований по развитию стратегии обучения определяет актуальность данной работы.

В мире особое значение имеют исследования по использованию когнитивных стратегий, таких как повторение, группировка, понимание и обобщение, основанных на механизмах человеческой памяти. В центре внимания мировых ученых находятся программы, направленные на повышение качества преподавания иностранных языков в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в центре CARLA Университета Миннесоты, центре COERLL Университета Остина (США), Университете МакГилл (Канада), Копенгагенском университете (Дания), Московском государственном университете и других. Кроме того, в Европе и Южной Америке в рамках проектов «Образование, язык, обучение и стратегии в межнациональном общении» изучаются компетенции, необходимые для обучения и общения. В связи с этим стратегическое мышление студентов и использование коммуникативных стратегий приобретают важное значение в современной системе образования.

В нашей республике на системной основе реализуется ряд мер по поднятию на качественно новый уровень процесса подготовки квалифицированных кадров, модернизации высшего образования, развитию социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий. В частности, «Политика открытости Узбекистана, активное вхождение на мировой рынок, расширение международного сотрудничества во всех сферах повышают потребность в знании иностранных языков. В нашей стране важной задачей определено создание новой системы обучения иностранным языкам, которая станет прочным фундаментом для будущего»¹³. В связи с этим развитие стратегии

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni chet tillarni o‘qitish o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan vidioselektor yig‘ilishidagi nutqi. Elektrton resurs: <http://president.uz/oz/lists/view/4327>. (Murojat qilingan sana: 17.01.2024).

преподавания практического английского языка в нефилологических высших учебных заведениях приобретает актуальное значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, установленных в Закон Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637 «Об образовании» Указ Президента Республики Узбекистан от 28 февраля 2023 года № УП-27 «О государственной программе по реализации Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования»,» постановления Президента Республики Узбекистан от 27 февраля 2020 года № ПП-4623 «О мерах по дальнейшему развитию сферы педагогического образования» от 1 апреля 2021 года № ПП-5047 «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в сфере науки и государственного управления инновационным развитием» от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков» а также в других нормативно-правовых актах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I.«Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Степень изученности проблемы. Вопросы преподавания иностранных языков в нашей стране рассмотрены в научно-исследовательских работах Г.Х.Бакиевой, Ж.Ж.Джалолова, Т.К.Саттарова, Д.У.Хошимовой, Ф.М.Рашидовой, К.Ш.Мурадқасимовой, И.М.Тухтасинова, У.У.Жуманазарова, Б.Г.Кулматова, Ф.Ш.Алимова, М.А.Назаровой, М.У.Бурановой, Д.Х. Холмуродовой¹⁴ и других ученых.

¹⁴Бакиева Г.Х. Преодоление звуковой интерференции при обучении русскому произношению студентов-узбеков (на материале консанантизма): Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Тошкент: 1987. – 21 с.; Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент, 2012. – Б. 430.; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дисс. док. пед. наук. – 2000. – 32 с.; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакунов в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: Дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2007. – 209 с.; Рашидова Ф.М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Дисс. ... док. пед. наук. – Т.: 2017. – С. 309.; Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг кўникма ва малакаларини баҳолаш хусусиятлари. Пед. фан. ном. дисс. – Тошкент, ЎзДЖТУ, 2019. – Б. 174.; Tuxtasinov I.M. Tarjimon ta'yorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (DSc) diss. Avtoref. – Toshkent, 2018. – 62 b.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent, 2018. – 45 b.; Jumanazarov U.U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped.fan.bo'yicha falsafa dok.(PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 89 b.; Alimov F.Sh. Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini shakllantirish

